



2018 yil yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish to'g'risida ma'lumot





RAQAMLAR:

- Mahalliyashtirish dasturidagi loyihalar soni - **619 ta**.
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi — **4,6 trln.so'm**.
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti — **135,0 mln.AQSH.dollar**.

Sanoat kooperatsiyasi asosida amalga oshirilayotgan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.


2018 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida 619 ta loyiha bo'yicha 4,6 trln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 135 mln.AQSH.dollarlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 399 ta yangi ish o'rnini yaratildi.

Yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari



2018 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan eng ko'p loyihalar Toshkent sh. (250 ta loyiha), Toshkent (129), Navoiy (48), Andijon (45), Farg'ona (37), Samarqand (33) va Namangan (29) viloyatlaridagi korxonalariga to'g'ri keladi.

Yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan loyihalar soni




■ 2017 yil ■ 2018 yil




2018 yilning yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmining 90 foiziga yaqini Toshkent sh. (1777,9 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1105,6 mlrd. so'm), Andijon (883,6 mlrd. so'm) va Toshkent (303,3 mlrd. so'm) viloyatlari korxonalariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi




Shu bilan birga, mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori o'sish sur'atlari 2017 yilning tegishli davriga nisbatan Samarqand (8,7 martaga), Namangan (6,6 martaga), Sirdaryo (6,0 mataga), Andijon (3,6 martaga), Jizzax (3,5 martaga), Toshkent (3,5 martaga) viloyatlarida, Toshkent shahrida (3,3 martaga), Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 martaga) va Navoiy viloyatida (2,8 martaga) kuzatildi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati, % da



2018 yilning yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2017 yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida kamayishi kuzatildi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti hajmi



Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2017 yilning tegishli davri bilan solishtirganda 29,4 foizga oshishi kuzatildi. O'z navbatida, eksportning eng ko'proq qismi Qoraqalpog'iston Respublikasiga (respublika eksportining umumiy hajmiga nisbatan 80,9 foizi) Toshkent shahriga (8,7 foizi) va Andijon viloyatiga (7,0 foizi) to'g'ri keladi.

Davlat statistika qo'mitasi
Sanoat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Sharipov
(0371) 230-80-46